O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARAQAND DAVLAT
UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi: № 09.2024
№ БД-60220300

"TASDIQLAYMAN"
SamDU rektori:
_____ R.I.Xalmuradov
2024 yil "__"_____

ARXEOLOGIYA
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	200000 – Sa'nat va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	220 000 – Gumanitar fanlar (Tillardan tashqari)
Ta'lim yo'nalishi:	60220300 – Tarix Kunduzgi 60220300 – Tarix Kechki

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
AR1105	2024-2025	1	5

Fan/modul turi	Ta'lim tili	Haftadagi dars soatlari
Majburiy	O'zbek	4

	Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Umumiy (soat)
1.	Arxeologiya	60	90	150

Fanning maqsadi (FM)	
FM1	**Fanni o'qitishdan maqsad** – "Arxeologiya" fanini o'qitishning asosiy maqsadi Arxeologiya to'g'risida talabalarda xolisona ilmiy dunyoqarashni, ko'nikma va malaka shakllantirish, moddiy va ma'naviy madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatish. Qadimgi davr tarixiy sharoitlari ilk odamlarning mehnat qurollari haqida tushunchalar birish. Maktab darsliklarida qadimgi davirda yuz bergan tarixiy jarayonlar haqida e'tibor qaratilgan. Shu nuqtai nazardan birinchidan bo'g'usi tarixchi pedagoglar uchun mavzuni to'loqonli va mazmunli asosda yetkaziv berish. Shuningdek, mazkur fan tarix ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriatni buyurtmachi tashkilot hisoblanuvchi Madaniy meros agentligi Yaxyo G'ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya institutiga arxeologik tadqiqotlarni amalga oshirishda shu soha bo'yicha to'la qonli bilim ko'nikmasiga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlashga o'z mazmuni bilan xizmat qiladi. Fan va ta'lim integratsiyasi mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda innovasiyalarni ta'lim tizimiga keng jalb etish, zamonaviy axborot-kommunikasiya tizimidan keng foydalanib arxeologik materiallarni tidqiq qilish imkonini beradi. **Fanning vazifasi** – talabalarda fanning nazariy va amaliy masalalarini shuningdek, arxeologik manbalar turlari. Arxeologik manbalarning qadimgi davr tarixini yoritishdagi o'rni va ahamiyati. Arxeologik yodgorliklar. Arxeologik yodgorliklar turlari. Aholi manzilgohlari, qabr-qo'rg'onlar majmualari, diniy inshootlar majmualari, ishlab chiqarish bilan bog'lik inshootlar va majmualarini o'rgatishdan iborat.

Fan mazmuni	
II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) **II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**	
Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)	
M1	**Fanning predmeti, maqsadi va vazifasi. Tadqiqot metodlari** Arxeologiya fan sifatida. Arxeologiya fanning predmeti, maqsadi va vazifalari Arxeologiyaning tarix fani sohasida tutgan o'rni. Arxeologik manbalar. Maddiy manbalar. Yozma manbalarning qadimgi va o'rta asrlar tarixini o'rganishdagi o'rni. Manbalarning madaniy-tarixiy jarayonlarni o'rganishdagi ahamiyati. Arxeologiya fanining yordamchi tarmoqlari. Arxeologik tadqiqot usullari. Madaniy qatlam.
M2	**Ilk paleolit davri.** Paleolit davri va uning bosqichlari. Paleolit davri tabiiy iqlim

	sharoitlari. Olduvay bosqichi. Sharqiy Afrikaning olduvay bosqichi yodgorliklari. Yevrosiyo hududiga ibtidoiy odamlarning tarqalishi. Asosiy arxeologik yodgorliklar. Ilk paleolit davri xususiyatlari. Ilk paleolit davri yodgorliklari.
M3	**O'rta paleolit davri.** Ashel davri. Yevrosiyo hududiga ibtidoiy odamlarning tarqalishi. Asosiy arxeologik yodgorliklar. O'rta paleolit davri xususiyatlari. O'rta paleolit davri yodgorliklari.
M4	**So'nggi paleolit davri.** So'nggi paleolit. Insoniyatning Amerika mintaqasiga tarqalishi. So'nggi paleolit davri tosh qurollari va ularga ishlov berish usullarining takomillashib borishi. So'nggi paleolit davri moddiy madaniyati. So'nggi paleolit davri o'zlashtiruvchi xo'jalik xususiyatlari (ovchilik va termachilik) suniy olovning ixtiro qilinishi.
M5	**Mezolit davri.** Mezolit davri tavsifi. Tabiiy iqlim o'zgarishlari va ekologiya. Yovvoyi hayvonlarni xonakilashtirishning boshlanishi. Ixtisoslashgan o'zlashtiruvchi xo'jalik shakllari. Moddiy madaniyat. Mikrolitlar. Old Osiyo mezolit davrida. Natufiy madaniyati. O'rta Osiyoning mezolit davri madaniyatlari: Sharqiy Kaspiy bo'yi, Qo'shilish, Obishir, Machay, Sazag'on, Vaxsh va boshqa madaniyatlar xususiyati. O'rta Osiyoning mezolit davri lokal madaniyatlarining xo'jalik va moddiy madaniyati xususiyatlari. Tasviriy san'at. Zarautkamar. Shaxta, Saypantosh. G'oyaviy qarashlar.
M6	**Neolit davri.** Neolit davri tavsifi. Neolit inqilobi. Yevrosiyoning janubiy viloyatlarida ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakllarining vujudga kelishi. Yaqin Sharqda ilk dehqonchilikning paydo bo'lishi. Iyerixon madaniyati. Kichik Osiyo ilk markazlari: Cheyunyu tepesi va Chatal Xyuyuk. Kulolchilikning paydo bo'lishi.
M7	**Neolit davri madaniyatlarining o'xshash va farqli jihatlari.** Jarmo madaniyati va Zagros madaniy birligi. Misdan foydalanishning boshlanishi. Tosh qurollar. O'rta Osiyoda ishlab chiqaruvchi xo'jalik shaklining paydo bo'lishi Jebel va Joytun madaniyatlari, kaltaminar madaniyati va Hisor madaniyati. Ilk dehqonchilik manzilgohlari va qurilish. Tosh qurollar. Hunarmandchilik.
M8	**Eneolit davri.** Eneolit davri. Metallurgiya ishlab chiqarishi jamiyat taraqqiyotida tub burilishning muhim omil sifatida. Metallurgiya markazlari. Janubiy Mesopotamiyaning eneolit davri arxeologiya majmuasi. Sug'orma dehqonchilik va uning ilk sivilizasiya shakllanishidagi ahamiyati. Ixtisoslashgan ishlab chiqarishning shakllanishi. Badiiy hunarmandchilik. Mulkiy tengsizlik va ijtimoiy tabaqalanish. Jamiyat boshqaruvida ibodatxonalar ahamiyatining ortib borishi. O'rta Osiyoning eneolit davri madaniyatlari (Anov-Nomozgoh, Sarazm). Manzilgohlar, qurilish va me'morchilik. Hunarmandchilik taraqqiyoti (kulolchilik va metall). Tasviriy san'at. Ijtimoiy munosabatlar. Diniy qarashlar.
M9	**Bronza davri.** Bronza davri tavsifi. Yevrosiyoning bronza davri madaniy-tarixiy jarayonlari. Yevrosiyoning bronza davri metallurgiya ishlab chiqarish markazlari va ularning sivilizasiya o'choqlari taraqqiyotiga ta'siri. Old Osiyoning bronza davri madaniy-tarixiy jarayonlari. Ibodatxona va saroy inshootlari. Yozuv. Xususiy mulchilikning paydo bo'lishi. Ixtisoslashgan hunarmandchilik. Bronza davri ilk shahar (Oltindepa, Gonur, Jarqo'ton, Sarazm Dashli) markazlari. Ixtisoslashgan hunarmandchilik. Moddiy madaniyat. O'rta Osiyoning dasht hududlari bronza davri madaniyatlari.

M10	**Temir davri.** Temir davri xususiyatlari. Ilk temir davri madaniy-tarixiy jarayonlari. O'rta Osiyoning ilk temir davri (Yaz I-III) arxeologiya majmuasi. O'rta Osiyoning ilk temir davri tarixiy-madaniy viloyatlari: Baqtriya, So'g'diyona, Marg'iyona, Shimoliy Parfiya, Xorazm. Qadimgi davlatlarning shakllanishi. Qadimgi shahar turidagi manzilgohlar: Afrosiyob, Ko'ktepa, Uzunqir, Yerqo'rg'on Yozdepa, Qiziltepa, Ko'zaliqir va boshqalar. Qurilish va me'morchilik. Xo'jalik xususiyatlari. Farg'ona vodiysining ilk temir davri (Chust, Eylaton) madaniyatida.
M11	**Antik davri arxeologiyasi.** Antik davri ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari. Markaziy Osiyoning antik davri davlatlari. Madaniy-tarixiy viloyatlar va ularning asosiy arxeologiya yodgorliklari. Antik davri yirik shahar markazlari. Dalvarzintepa, Afrosiyob, Yerqo'rg'on, Gyaurqal'a, Niso, Tuproqqal'a, Qozoqliyotgan va boshqalar). Sharq ellinizmining shaharsozlik, me'morchilik va moddiy madaniyatda namoyon bo'lishi.O'rta Osiyoning janubiy hududlarida Gandxar (Hind) madaniyatining ta'siri. Sirdaryo havzasi o'troq dehqonlari va chorvador qabilalari. Qovunchi madaniyati. Qanqa. Farg'ona antik davrida. Sho'rabashat (Ko'ngay-Qorabog') madaniyati. Ustrushona antik davrida.
M12	**Ilk o'rta asrlar arxeologik yodgorliklari.** O'rta asrlarda odamlar qanday yashaganliklari haqida biz tarixiy manbalar orqali habardormiz. Ayniqsa, jahon muzeylarida saqlanayotgan mehnat qurollari, qurol yarog'lar, pullar, ro'zg'or buyumlari, shuningdek, uylar, ko'priklar, ibodatxonalar va qal'a devorlari kabi ko'plab ashyoviy yodgorliklar mavjud. Ular o'rta asr kishilarining kundalik hayot tarzi haqida ko'p ma'lumotlar berishi mumkin. Arxivlarda hukmdorlarning qonun va farmonlari, sud qarorlari, mulk tafsiflari va boshqa shunga o'xshash yozma manbalar mavjud.
M13	**Mavarounnahr Temuriylar davri tarixiy-arxitekturaviy yodgorliklari.** Tarixiy manbalardan ma'lumki, Amir Temur hokimiyat tepasiga kelishi bilan Movarounnahr shaharsozligida yangicha uslub paydo bo'lgan, shaharlarda yirik saroylar, bog'lar, madrasalar, hunarmandlik markazlari bunyod etilgan. Amir Temur davri bunyodkorligi uning avlodlari tomonidan davom ettirilgan. Sohibqiron har bir yangi qurilish oldidan mashhur me'moru ustalar, olimlar bilan kengashib, ularga g'oya bergan va shu g'oyalar bo'yicha quriladigan inshootlarning tarhi yaratilgan. Bu inshootlar har tomonlama mukammallashgan tarh asosida aniq reja, maqsad bilan mahoratli me'mor ustalar tomonidan bunyod etilgan.

III.Mashg'ulotlar shakli: seminar (S)

S1	Fanning predmeti, maqsadi va vazifasi.
S2	O'rta Osiyo ashel yodgorliklari.
S3	Muste davri yodgorliklari.
S4	O'rta Osiyo so'nggi paleolit davri yodgorliklari.
S5	Mezolit davrining arxeologik madaniyatlari.
S6	Joytun madaniyati.
S7	Kaltaminor va Sazag'on tarixiy-madaniy jamoalar madaniyati.
S8	Hisor va Markaziy Farg'ona neolit davri madaniyati

S9	O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i eneoliti.
S10	O'rta Osiyo bronza davri protashaharlari.
S11	O'rta Osiyo ilk temir davri madaniyatlari.
S12	O'zbekiston va Tojikistonning antik davri yodgorliklari.
S13	Afrosiyob shaharchasining arxeologik o'rganilishi.
S14	Samarqand va uning atrof hududlari tarixiy-arxitekturaviy yodgorliklari.

Mashg'ulotlar shakli: amaliy I semester (A) 6 - soat	
A1	Tosh materiallarni texnik tipologik tahlil qilish va ularni chizish.
A2	Arxeologik tadqiqotlarda zamonaviy qurilmalardan foydalanish.
A3	Yodgorliklarni tarixiy davrlar bo'yicha xaritalashtirish (tosh, eneolit-bronza, temir, antik, o'rta asrlar davri).
Jami	**6 soat**

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

"Arxeologiya" ***fani bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlari bo'yicha mustaqil ishlarning kalendar tematik rejasi***

№	Mustaqil ta'lim mavzulari
1	Olduvay davri arxeologik yodgorliklari
2	Ashel davri arxeologik yodgorliklari
3	Mustye davri arxeologik yodgorliklari
4	Sungi paleolit arxeologik yodgorliklari
5	Mezolit davri yodgorliklari
6	Neolit davri lokal madaniyatlari
7	O'rta Osiyoning eneolit davri manzilgohlari
8	O'rta Osiyoning bronza davri manzilgohlari
9	O'rta Osiyoning bronza davri protoshahar shaklidagi manzilgohlari
10	O'rta Osiyoning bronza davri dehqonchilik manzilgohlari
11	O'rta Osiyoning temir davri manzilgohlari
12	Temir davri madaniy-tarixiy viloyatlari arxeologiyasi
13	O'rta Osiyoning antik davri shaharlari
14	O'rta Osiyoning antik davri moddiy madaniyati
15	O'rta Osiyoning antik davri tasviriy san'ati
16	O'rta Osiyoning ilk o'rta asrlar shaharlari
17	O'rta Osiyoning rivojlangan o'rta asrlar moddiy madaniyati
18	O'rta Osiyoning sungi o'rta asrlar shaharlari
19	Mustaqilik davrida tosh davri arxeologiyasini o'rganilishi
20	Mustaqilik davrida antik davri yodgorliklarini o'rganilishi

"Arxeologiya" fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Jumladan, Olduvay davri arxeologik yodgorliklari shu bilan birga tosh, bronza, antik va o'rta asrlar davriga oid moddiy madaniyat haqida talabada bilim ko'nikmasini shakllantirish e'tiborga olingan. Masalan,

O'rta Osiyoda qadimgi tosh davridan boshlab odamlar yashab kelganligi. Neolit davridan boshlab insoniyat tarixida ishlab chiqarish xo'jaligiga o'tgan jamolarni madaniyati vujudga kelganligi, to'g'risida malumotlarga ega bo'ladi. Bronza va antik davrda shaharlar paydo bo'lib rivojlanganligi, shaharlar aholisining ijtimoiy hayoti ancha yaxshilanganligi to'g'risida bilimlarga ega bo'ladi. O'rta asrlada shaharlarda hunarmanchilik, tasviriy sa'nat rivojlangan. Mustaqillik davrida arxeologiya sohasida amalga oshirlayotgan ishlar, yirik tarixiy yodgorliklarni ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantirish ishlari olib borilayotganligi. Shu mazmunda MT da nazarda tutilgan mavzular haqida talabalar ish olib borishadi. Barcha keltirilgan mavzularni har biri to'g'risida talabalar qay tarzda o'zlashtirish, bilim ko'nikmasiga ega bo'lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.

3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • "Arxeologiya" fanidan talabalar, ushbu davrda tarixiy tadqiqotlar ko'lami, davrning o'z dolzarb muammosini tadqiqotlarning metodologik asoslari haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi;*** • Talaba "Arxeologiya" fanining alohida fan sifatida mavqyeiga ega bo'lishi, o'rganilayotgan davr va bugungi kun tarix fanining dolzarb muammolarini to'g'ri talqin qilish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak***. • Talaba o'zlashtirayotgan fan bo'yicha egallagan bilimlarini tahlil qilish to'plangan tarixiy tajribani ilmiy va pedagogik amaliyotda samarali qo'llash ***malakalariga ega bo'lishi kerak***.
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • munozara, • o'z-o'zini nazorat. • "Aqliy hujum", • "Muammo"; • Krossvord
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil ta'limda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

6.	**Asosiy adabiyotlar** 1. Djurakulova D.M. O'rta Osiyo arxeologiyasi. Darslik. Samarqand, 2023. 2. Djurakulova. D. O'rta Osiyo arxeologiyasi (Paleolit davri). O'quv qullanma. Samarqand. 2022 3. Xolmatov N.O'. O'rta Osiyo arxeologiyasi: tosh, eneolit va bronza davri. Darslik. Samarqand. 2022 4. Xolmatov N.O'. O'rta Osiyo arxeologiyasi: tosh davri. O'quv qo'llanma. Samarqand. 2020 5. Аванесова Н.А. Археология Средней Азии: энеолит и бронзовый век. Учебник. Самарканд, 2020. – 6. Мартынов А.И., Шер Я.А. Методы археологического исследования. М.,2011. 7. Дилфуза Джўрақулова. Зарафшон водийсининг ибтидоий давр қабилалари моддий маданияти. Самарқанд – 2010 8. Воробьева Г.А., Бердникова Н.Е. Картография для археологов. Учебное пособие. Иркутск. 2007. 9. Eshov B. Qadimgi O`rta Osiyo shaharlari tarixi. – T., 2006. 10. J.Kabirov, A.Sagdullayev O'rta Osiyo arxeologiyasi T; 1990 **Tavsiya qilinadigan qo'shimcha adabiyotlar** 1. Artsixovskiy A.V. Arxeologiya asoslari. - T., 1970. 2. Лунина С.Б. К основным итогам археологических исследований в Узбекистане //Материалы по истории, историографии и археологии. Сборник научных трудов ТашГУ. Т., 1975. № 482. 3. Археологические исследования в зонах мелиорации, итоги и перспективы их интенсификации. Л., 1985. 4. Методика полевых археологических исследований. М., 1983. 5. Крашенинникова Н.И. Методика обработки археологического материала. Т., 1988. 6. Усманова З.И. Методические указания полевых исследований для студентов-археологов. Т., 1988 7. Шапова Ю.Л. Естественно-научные методы в археологии. М., 1988
7.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O'quv-uslubiy kengashining 2024 yil "28" 08 dagi 1-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar**: **Berdiqulov M.T** – Sharof Rashidov nomidagi SamDU, "Arxeologiya" kafedrasi o'qituvchisi (PhD).
9.	**Taqrizchilar:** **Ergashev O.T**– Sharof Rashidov nomidagi SamDU, "Arxeologiya" kafedrasi mudiri, dotsent (ichki) **Sandiboyev A.N** – Yahyo G'ulomov nomidagi , Samarqand Arxeologiya instituti katta ilmiy xodimi, PhD (tashqi).

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais - **Xolmatov N.O'.**

"Arxeologiya" kafedrasi mudiri: **dots. Ergashev O.T.**

Tarix fakulteti dekani: **prof. Djurakulova D.M.**

SamDU o'quv ishlari bo'yicha prorektori: **prof. Soleyev A.S.**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti 60220300 – Tarix yo'nalishi talabalari uchun tuzilgan "Arxeologiya" fani Fan dasturiga

TAQRIZ

Arxeologiya fani tarixni o'rganishda asosiy fanlar qatorida bo'lib, eng ishonchli manbalarni bera oladi. Har bir tarixchi bu fanning tub mohiyatini anglay olishi, uning sir-sinoatlarini bilishi lozim. Ayniqsa, ibtidoiy jamoa tarixi, qadimgi dunyo tarixi va o'rta asrlar tarixini haqiqiy yuzni ochib berishda arxeologiya fani yutuqlariga murojaat qilishimiz lozim hisoblanadi. Lekin, bu fanning asl mohiyatini tushunib yetmasdan, uning maqsad va vazifasini anglay olmasdan, oldimizagi muammoning yechimini topish ancha mushkul ish hisoblanadi.

Biz mustaqillikka erishganimizdan keyin ming yillik tarixga ega bo'lgan shaharlarimiz, ularning jahon tamadduni tarixida tutgan o'rni, boy ilmiy merosimizni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Har bir xalqning kimligini bilish uchun uning tarixini, madaniyatini, tom ma'noda bosib o'tgan yo'lini bilishimiz kerak. Shunday ekan, o'zbek xalqi o'zining 3000 yillik tarixi davrida ko'plab o'zgarishlarga duch keldi. Shu nuqtayi nazardan olganda, tarixning haqiqiy yuzini ochib beradigan, birlamchi manbani bera oladigan fan albatta, arxeologiya fani hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatida muhim o'ziga xos o'rniga ega bo'la boshladi. Bu shubhasiz, davlatchiligimizning yangi pog'onaga chiqganligidan dalolat beradi. Mana shu jihatlarni inobatga olgan holda, "Arxeologiya" fani asosiy fan sifatida oliy o'quv yurtlarining tarix yo'nalishi talabalariga o'tilishi kerak bo'lgan fanlardan hisoblanadi. Bu fan arxeologiya fanini endi o'rganayotgan talabalar, bu fanga qiziquvchilar uchun fundamental ma'lumotlarni bera oladi.

O'quv dasturlari va fan sillabuslari ta'lim tizimidagi har bir o'quv fanining mazmuni va o'tilish tartibini, talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajmini belgilab beradigan, rasmiy pedagogik hujjat hisoblanadi. O'quv dasturi va fan sillabusi tegishli vazirliklar qoshidagi ilmiy metodik kengashlar yoki tegishli oliy ta'lim muassasalari kengashlari tomonidan tasdiqlanadi. O'quv fanining maqsad va vazifalarini belgilab berish O'quv dasturi va fan sillabusining muhim belgisi hisoblanadi. Chunki, ayni shu narsa yaratiladigan o'quv darsligi muallifiga muayyan nuqtayi nazarni tanlash, o'qituvchiga esa pedagogik mo'ljalni to'g'ri belgilash imkonini beradi.

Ta'lim amaliyotida O'quv dasturi va fan sillabusi yaratishning konsentrik (markazlashgan) hamda tizimli usullari bor. Konsentrik yo'l bilan tuzilgan O'quv dasturi va fan sillabusida ta'limning mazmuni yoki o'quv materiallari o'qitishning keyingi bosqichida yuksakroq darajada takrorlanishi ko'zda tutiladi. Tizimli usuldagi O'quv dasturi va fan sillabuslarida esa o'quv materiallari fan mantig'iga muvofiq soddadan murakkabga qarab ketma-ket joylashtiriladi.

Ta'limning O'quv dasturi va fan sillabusi tomonidan belgilangan mazmuni darslik, o'quv qo'llanmalar, ko'rgazmali qurol va metodik tavsiyalarda to'la namoyon bo'ladi.

Mazkur Fan dasturi "Arxeologiya" majburiy fan bo'yicha yaratilgan bo'lib, unga mazkur yo'nalish xususiyatlarini hisobga olgan holda ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari uchun mavzular va ularni bayon etish uchun zarur ko'rsatma va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek, mustaqil ta'lim shakllari va mavzulari, fanni o'qitish natijalari, ta'lim texnologiyalari va metodlari hamda asosiy va qo'shimcha adabiyotlar batafsil bayon etilgan.

"Arxeologiya" fanining fan dasturi mazmuni va tuzilishi jihatidan o'quv dasturlari va fan Sillabuslariga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni mazkur ta'lim yo'nalishi talabalari uchun ta'lim jarayonida foydalanish uchun tavsiya etaman.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti
Arxeologiya kafedrasi mudiri: (PhD), dotsent **Q.T.Ergashev**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti 60220300 – Tarix yo'nalishi talabalari uchun tuzilgan "Arxeologiya" fani Fan dasturiga

TAQRIZ

Arxeologiya fani tarixni o'rganishda asosiy fanlar qatorida bo'lib, eng ishonchli manbalarni bera oladi. Har bir tarixchi bu fanning tub mohiyatini anglay olishi, uning sir-sinoatlarini bilishi lozim. Ayniqsa, ibtidoiy jamoa tarixi, qadimgi dunyo tarixi va o'rta asrlar tarixini haqiqiy yuzni ochib berishda arxeologiya fani yutuqlariga murojaat qilishimiz lozim hisoblanadi. Lekin, bu fanning asl mohiyatini tushunib yetmasdan, uning maqsad va vazifasini anglay olmasdan, oldimizagi muammoning yechimini topish ancha mushkul ish hisoblanadi.

Biz mustaqillikka erishganimizdan keyin ming yillik tarixga ega bo'lgan shaharlarimiz, ularning jahon tamadduni tarixida tutgan o'rni, boy ilmiy merosimizni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Har bir xalqning kimligini bilish uchun uning tarixini, madaniyatini, tom ma'noda bosib o'tgan yo'lini bilishimiz kerak. Shunday ekan, o'zbek xalqi o'zining 3000 yillik tarixi davrida ko'plab o'zgarishlarga duch keldi. Shu nuqtayi nazardan olganda, tarixning haqiqiy yuzini ochib beradigan, birlamchi manbani bera oladigan fan albatta, arxeologiya fani hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatida muhim o'ziga xos o'rniga ega bo'la boshladi. Bu shubhasiz, davlatchiligimizning yangi pog'onaga chiqganligidan dalolat beradi. Mana shu jihatlarni inobatga olgan holda, "Arxeologiya" fani tanlov fan sifatida oliy o'quv yurtlarining tarix yo'nalishi talabalariga o'tilishi kerak bo'lgan fanlardan hisoblanadi. Bu fan arxeologiya fanini endi o'rganayotgan talabalar, bu fanga qiziquvchilar uchun fundamental ma'lumotlarni bera oladi.

O'quv dasturlari va fan sillabuslari ta'lim tizimidagi har bir o'quv fanining mazmuni va o'tilish tartibini, talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajmini belgilab beradigan, rasmiy pedagogik hujjat hisoblanadi. O'quv dasturi va fan sillabusi tegishli vazirliklar qoshidagi ilmiy metodik kengashlar yoki tegishli oliy ta'lim muassasalari kengashlari tomonidan tasdiqlanadi. O'quv fanining maqsad va vazifalarini belgilab berish O'quv dasturi va fan sillabusining muhim belgisi hisoblanadi. Chunki, ayni shu narsa yaratiladigan o'quv darsligi

muallifiga muayyan nuqtayi nazarni tanlash, o'qituvchiga esa pedagogik mo'ljalni to'g'ri belgilash imkonini beradi.

Ta'lim amaliyotida O'quv dasturi va fan sillabusi yaratishning konsentrik (markazlashgan) hamda tizimli usullari bor. Konsentrik yo'l bilan tuzilgan O'quv dasturi va fan sillabusida ta'limning mazmuni yoki o'quv materiallari o'qitishning keyingi bosqichida yuksakroq darajada takrorlanishi ko'zda tutiladi. Tizimli usuldagi O'quv dasturi va fan sillabuslarida esa o'quv materiallari fan mantig'iga muvofiq soddadan murakkabga qarab ketma-ket joylashtiriladi.

Mazkur Fan dasturi "Arxeologiya" tanlov fani bo'yicha yaratilgan bo'lib, unga mazkur yo'nalish xususiyatlarini hisobga olgan holda ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari uchun mavzular va ularni bayon etish uchun zarur ko'rsatma va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek, mustaqil ta'lim shakllari va mavzulari, fanni o'qitish natijalari, ta'lim texnologiyalari va metodlari hamda asosiy va qo'shimcha adabiyotlar batafsil bayon etilgan.

Fan dasturida "Arxeologiya" fanining mazmuni, talabalar bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yilagan talablar, bo'lajak arxeolog va arxeologiya fani o'qituvchisining kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan amaliy va nazariy tushunchalarni o'z ichiga qamrab oladi.

"Arxeologiya" fanining Fan dasturi mazmuni va tuzilishi jihatidan o'quv dasturlari va fan Sillabuslariga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni tanlov fan sifatida mazkur ta'lim yo'nalishi talabalari uchun ta'lim jarayonida foydalanish uchun tavsiya etaman.

Yahyo G'ulomov nomidagi Samarqand Arxeologiya instituti katta ilmiy xodimi, Ph.D Sandiboyev A.N

KADRLAR BO'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIY MEROS AGENTLIGI Y.G'ULOMOV NOMIDAGI SAMARQAND ARXEOLOGIYA INSTITUTI
ASLIGA TO'G'RI